**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SAFAROVA DILNORA TESHABOYEVNA

CHEKLI DARAJALI KOVARIANT FUNKTORLARNI TOPOLOGIK VA KARDINAL XOSSALARI

01.01.04 – Geometriya va topologiya

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Toshkent –2023

UDK: 515.122

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SAFAROVA DILNORA TESHABOYEVNA

CHEKLI DARAJALI KOVARIANT FUNKTORLARNI TOPOLOGIK VA KARDINAL XOSSALARI

01.01.04 – Geometriya va topologiya

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Toshkent –2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.4.PhD/FM291 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fk-fizmat.nuu.uz) va «ZiyoNet» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Beshimov Ruzinazar Bebutovich** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Zaitov Adilbek Ataxanovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Raximov Abdugafur Abdumadjidovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «04» 01 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+998 71) 227 12 24, faks: (+998 71) 246 53 21, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (19 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+998 71) 246 02 24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «21» 12 kuni tarqatildi.
(2023 yil «21» 12 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).

A.Sadullayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

R.M.Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.f.d. (PhD)

A.Ya.Narmanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., professor

KIRISh (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda kovariant funktorlar nazariyasi masalalarini tadqiq qilishga keltiriladi. Kovariant funktorlarning kardinal invariantlarini taqqoslash funktsional analiz, geometriya, topologiya kabi sohalardagi tadqiqotlarning ob’ektidir. Chekli darajali kovariant funktorlarning kardinal invariantlarini taqqoslash topologik fazolar kardinal sonlarining teng bo‘lish shartlarini topishda asos sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun kovariant funktorlarning kardinal invariantlarini taqqoslash fazolarning kardinal invariantlarini tadqiq qilish, topologik fazoning giperfazosini, algebraik topologiya va kardinal invariantlar nazariyasining muhim vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika masalalarining turli modellarini yaratishda o‘z talqiniga ega bo‘lganligi sababli, kovariant funktorlarning kardinal invariantlari nazariyasi bo‘yicha olingan natijalar ham nazariy, ham tatbiqiy jihatdan ahamiyatli va zamonaviy matematikaning dolzarb yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Hozirgi kunda jahonda kovariant funktorlarni ya’ni topologik fazolarni giperfazosining kardinal invariantlarini taqqoslash, kardinal invariantlar va kovariant funktorlar nazariyasi masalalarini yechish zamonaviy topologiyaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Giperfazolarning zichligi, salmog‘i, xarakteri, kuchsiz zichligi kabi kardinallarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada: berilgan fazo va uning giperfazosining kardinallarini taqqoslash; kardinal invariantlarning teng bo‘lish shartlarini topish; undan tashqari giperfazolarning “tekis o‘lchovli” strukturasi haqidagi masalalari maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan geometriya va topologiyaning dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, topologik fazolarning kardinal invariantlari va funktorlar nazariyasi masalalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Chekli darajali kovariant funktorlar fazocining topologik, geometrik va kardinal xossalari saqlanishiga oid salmoqli natijalarga erishildi. “Funktsional analiz, geometriya va topologiya fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha halqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari” etib belgilandi[1]. Bu borada: berilgan fazo va uning giperfazosi kardinallarini taqqoslash; kardinal invariantlarning teng bo‘lish shartlarini topish masalalari maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantrish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi № PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi № “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, PQ-2789-sonli Qarori va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

2019 yil 9 iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institute faoliyatini tubdantakomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Topologik fazolar va ularning akslantirishlari kategoriyasida ta’sir qiluvchi kovariant funktorlarni tadqiq qilish topologiya matematikaning alohida sohasi sifatida ajralib chiqqan paytlardayoq boshlangan. Kompaktlar kategoriyasida harakatlanuvchi kovariant funktorlarning klassik namunasi sifatida paydo bo‘lishi Xausdorf va Vietorislar nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan eksponentsial operatsiya funktori xizmat qiladi. Y.V.Shepin ilmiy ishlarida kovariant funktorlarning keng qamrovli nazariyasi yaratilgan. U funktorlarning qator tabiiy va kengroq ahamiyat kasb etuvchi xossalarini ajratib ko‘rsatgan hamda normal funktor tushunchasini kiritgan.

L.Vietoris giperfazo tushunchasini birinchi bo‘lib kiritgan. V.V.Fedorchukning ilmiy ishida $\exp$ funktor kompaktlar va ularning uzluksiz akslantirishlari kategoriyasida normal funktor bo‘lishini ko‘rsatgan. Topologik fazo va uning giperfazosining topologik xossalarini ko‘plab olimlarning, jumladan, T.Radul, T.Mizokami, S.Todorchevich, S.R.Borges, E.Maykl, V.V.Fedorchuk, A.V.Ivanov, M.M.Zarichniy, V.N.Basmanov, A.P.Kombarov va K.Nagamilarning ishlarida yoritilgan. T.Mizokami ishlarida topologik fazoning giperfazosining topologik xossalari keng o‘rganilgan bo‘lib, ushbu fazolarga Lashnev fazosi, L-fazo, parakompakt fazo, M-fazo, sanoqli kompakt fazo va d-parakompakt fazo ta’sir qilganda bu xossalar saqlanmasligini ko‘rsatgan. Y.Maykl ishlarida $\exp$ funktor zichlikni, kompaktlikni, lokal kompaktlikni saqlashi isbotlangan.

V.V.Fedorchuk va Yu.V.Sadovnichiylar tekis o‘lchovli fazolarda ehtimollik o‘lchovlari funktori kompakt eltuvchi bilan oldkompaktlikni, to‘la chegaralanganlikni saqlashini o‘rganishgan. A.A.Borubayev va D.T.Eshqobilovalar tekis o‘lchovli fazolarda idempotent ehtimollik o‘lchovlari funktori kompakt eltuvchi bilan ochiq akslantirishni, salmog‘ini, to‘liqlik indeksini, oldkompaktlikni, tekis uzluksiz akslantirishni va lokal kompaktlikni saqlashini isbotlashgan. Sh.A.Ayupov va T.F.Jurayevlarning ishida ehtimol o‘lchovli P funktorning qism funktori P_f ta’sirida fazolarning geometrik xossalarini ko‘rib chiqilgan. A.A.Zaitov va D.I.Jumayevlar X tixonov fazoning $\exp_\beta X$ kompakt qism fazosi Π-to‘liq bo‘lishi uchun X fazo ham Π-to‘liq bo‘lishi zarur va yetarliligini isbotlashgan. Ular, shuningdek $\exp_\beta f : \exp_\beta X \to \exp_\beta Y$ tixonov akslantirishi Π-to‘liq bo‘lishi uchun $f : X \to Y$ akslantirish ham Π-to‘liq bo‘lishi zarur va yetarliligini isbotladilar. R.B.Beshimov ixtiyoriy cheksiz T_1-fazoda $\exp$ funktor kuchsiz zichlikni, π-salmoqni, π-xarakterni, kalibrni, oldkalibrni, Shanin sonini va oldshanin sonini saqlashini o‘rgangan.

Umuman olganda yuqorida sanab o‘tilgan ilmiy izlanishlar davomida o‘ta muhim bo‘lgan natijalarga erishilgan bo‘lsada, shuni alohida ta’kidlash lozimki bugungi kungacha chekli darajali kovariant funktorlarni kardinal invariantlari va topologik xossalari sistematik to‘la o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining FA-F4-27 “Topologik fazolar kategoriyasiga ta’sir qiluvchi ba’zi kovariant funktorlarning topologik va kardinal xossalarini tadqiq qilish” (2012-2016 yillar) va O‘zbekiston Milliy Universitetining OT-F4-42 raqamli “Yarim additiv τ-silliq Radon funktsionallari fazolari topologik va kardinal xossalari” (2017-2020 yillar) mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi chekli darajali kovariant funktorlarni kardinal, topologik va tekis o‘lchovli xossalarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

topologik fazolarda kuchsiz normal funktor nasliy xossalarni saqlamasligi tadqiq qilish;

diadik kompakt fazolariga kuchsiz normal funktor ta’sir qilganda kardinal xossalarni saqlashini o‘rganish.

$\exp$ funktor final kompaktlikni saqlamasligiga misol qurish va $\exp_c$ funktor final kompaktlikni saqlashini tekshirish;

$\exp$ funktor sekvensial kompakt, psevdokompakt, ekstremal bog‘lamsiz fazolarga ta’sir qilganda, bu topologik xossalarni saqlashini tadqiq qilish;

chekli darajali kovariant funktorlar stratifik, yarimstratifik, σ-fazo, parakompakt $\sum$-fazo, $\aleph$-fazo, $\aleph_0$-fazolarni saqlashini o‘rganish;

kovariant funktorlarning tekis o‘lchovlik xossalarini tavsiflash;

tekis o‘lchovli parakompakt fazo va tekis o‘lchovli R-parakompakt fazolar va ularni giperfazosini o‘rganish;

eksponentsial fazolar ta’sir qilganda fazolarning tekis o‘lchovli lokal kompaktligi, oldkompaktligi, tekis o‘lchovli P-oldkompaktligini saqlashini isbotlash.

Tadqiqotning ob’ekti chekli darajali kovariant funktorlar, giperfazo, umumlashgan metrik fazolar, tekis o‘lchovli fazo, tekis o‘lchovli parakompaktlik, tekis o‘lchovli bog‘lamlilik va kardinal invariantlardan iborat.

Tadqiqotning predmeti chekli darajali kovariant funktorlarni kardinal xossalari, topologik xossalari, giperfazoning tekis o‘lchovli fazolardagi ta’siridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida umumiy topologiya, kovariant funktorlar nazariyasi hamda chekli darajali kovariant funktorlarning topologik va kardinal xossalariga asoslangan usullardan foydalanilgan. Shuningdek, to‘plamlar nazariyasi, tekis o‘lchovli fazolar nazariyasi hamda umumiy topologiya masalalarini yechish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kuchsiz normal funktor kompakt fazolarni nasliy oldshanin sonini, nasliy kalibrini, nasliy oldkalibrini, nasliy kuchsiz zichligini, nasliy Lindelyof sonini va nasliy ekstentini saqlamasligi isbotlangan;

diadik kompakt fazo va kuchsiz normal funktor uchun xarakter, psevdoxarakter, tesnota, nasliy Suslin soni, nasliy zichlik, nasliy π-salmog‘, nasliy Shanin soni va spred teng ekanligi isbotlangan;

$\exp_c$ funktor final kompaktlikni saqlashi, $\exp_n$ funktor sekvensial kompaktlikni va psevdokompaktlikni saqlashi hamda $\exp$ funktor kuchli nolo‘lchovlilikni va ekstremal bog‘lamsizlikni saqlashi isbotlangan;

$\exp_n$ funktor stratifiklik va yarim-stratifiklikni saqlashi, σ-fazoni σ-fazoga, parakompakt Σ-fazoni parakompakt Σ-fazoga, $\aleph$-fazoni $\aleph$-fazoga va $\aleph_0$-fazoni $\aleph_0$-fazoga o‘tkazishi isbotlangan;

$(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli giperfazo oldkompaktlikni, tekis lokal kompaktlikni, tekis bog‘lamlilikni, tekis R-parakompaktlikni, tekis zanjirlanganlikni va tekis P-oldkompaktlikni saqlashi ko‘rsatilgan hamda $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo uchun $[\langle \alpha' \rangle] = \langle [\alpha'] \rangle$ tenglik o‘rinli bo‘lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari chekli darajali kovariant funktorlarning kardinal va topologik xossalarini tadqiq qilish natijalari kombinatorik topologiya va kovariant funktorlar nazariyasi masalalarini yechishda qo‘llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Umumiy topologiya, to‘plamlar nazariyasi, funktorlar nazariyasi va kardinal invariantlar nazariyasi usullaridan foydalanilganligi hamda matematik mulohazalarning qat’iyligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati giperfazolarda zichlik, salmoq, xarakter, Shanin soni, Suslin soni, sust zichlik va kalibr kabi kardinal invariantlar saqlanishini isbotlashda qo‘llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati giperfazolarning tekis o‘lchovlilik xossalari bo‘yicha tadqiqot natijalari matematik analizda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tekis uzluksiz funktsiyalarni tadqiq qilishda hamda differentsial topologiyaning turli masalalarida qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Chekli darajali kovariant funktorlarning topologik va tekis o‘lchovli fazolar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Giperfazo final kompaktlikni va ekstremal bog‘lamsizlikni saqlashi hamda kuchsiz normal funktor ta’sirida ba’zi kardinal xossalarning saqlanishiga doir natijalar Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan “Boshqaruv nazariyasi va differentsial o‘yinlarda geometrik usullarni boshqarish” mavzusidagi fundamental loyihada vektor maydonlari orbitalarining geometriyasini o‘rganishda qo‘llanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston

Milliy universitetining 2023 yil 9 sentyabrdagi 04/11-5432 raqamli ma’lumotnomasi). Olingan natijalar, $\exp$ funktor ta’sirida tekis o‘lchovli oldkompaktlik, tekis o‘lchovli parakomaktlik va tekis o‘lchovli R-parakompaktlikning saqlanishi vektor maydonlar orbitalarining topologik xusisiyatlarini o‘rganishga, xususan, vektor maydonlar oilasi orbitasining Riman ko‘pxilligida yopiqligini o‘rganish imkonini bergan.

Scopus ma’lumotlar bazasidagi “Lobachevskii Journal of Mathematics” jurnalida tadqiqotlar asosida chop etilgan “Some topological properties of a functor of finite degree” nomli maqolada keltirilgan natijalarga xavolalar berilganligi bilan Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2015 yil 20 martdagi 214/9-son qarori bilan tasdiqlangan “Dissertatsiyalar ilmiy natijalarining amaliyotga joriy qilinishini baholash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar”ning 2-bobi 7-bandida ko‘rsatilgan talablar bo‘yicha amaliyotda qo‘llanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 9 sentyabrdagi 04/11-5437 raqamli ma’lumotnomasi). Olingan natijalarning qo‘llanilishi, $\exp, \exp_n, \exp_\omega$ funktorlar final kompaktlikni, psevdokompaktlikni, ekstremal bog‘lamsizlikni va $\aleph$-fazoni saqlashi $N_\omega^d, N_\tau^\varphi, N_c$ yadrolari topologik fazolarning zichligini, salmog‘ini, Suslin sonini va π-salmog‘ini saqlashiga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 15 ta Xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 32 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 93 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Umumiy topologiyada ba’zi kardinal invariantlar va kuchsiz normal funktorlar nazariyasi”** deb nomlanuvchi birinchi bobi uchta paragrafdan iborat. Dissertatsiyaning ushbu bobida kelgusida qo‘llaniluvchi zaruriy tushuncha va ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Quyidagi kardinallarning ta’riflari berilgan: to‘r salmog‘i, π-to‘r salmog‘i, salmoq, π-salmoq, zichlik, sust zichlik, xarakter, π-xarakter, Suslin soni, kalibr, oldkalibr, spred, tesnota, ekstent, Shanin soni va old Shanin soni. Shuningdek, birinchi bobda giperfazolar, chekli darajali kovariant funktorlar, kategoriyalar hamda Shepin ma’nosidagi normal funktorlar ta’riflari keltirilgan.

Agar X fazoning ixtiyoriy ochiq qoplamasidan sanoqli qism qoplama ajratish mumkin bo‘lsa, X topologik fazo final kompakt deb ataladi.

Agar X topologik fazoning ixtiyoriy ochiq qism to‘plami $U \subset X$ uchun bu to‘plamning yopilmasi $[U]$ ham X fazoda ochiq to‘plam bo‘lsa, X topologik fazo ekstremal bog‘lamsiz deyiladi.

Agar X topologik fazoning ixtiyoriy $x \in X$ nuqtasi uchun shunday U atrofi mavjud bo‘lib, $\{s \in S : U \cap A_s \neq \varnothing\}$ to‘plam chekli bo‘lsa, $\{A_s : s \in S\}$ oila lokal chekli deyiladi.

Agar X topologik fazoning ixtiyoriy ochiq qoplamasiga lokal chekli ochiq qoplamani ichki chizish mumkin bo‘lsa, X topologik fazo parakompakt deb ataladi.

Ta’rif 1.1.1. Agar X topologik fazo σ-lokal chekli to‘rga ega bo‘lsa, u holda X topologik fazo σ-fazo deyiladi.

Ta’rif 1.1.4. Agar X topologik fazoning ixtiyoriy K kompakt qism to‘plami va uni o‘z ichiga oluvchi ixtiyoriy U ochiq to‘plam uchun $K \subset \bigcup \mathscr{F}' \subset U$, shartni qanoatlantiruvchi chekli $\mathscr{F}' \subset \mathscr{F}$ qism oila mavjud bo‘lsa, X topologik fazoning qism to‘plamlaridan iborat $\mathscr{F}$ oila bu fazoning k-to‘ri deyiladi. σ-lokal chekli (sanoqli) k-to‘rga ega bo‘lgan regulyar fazoga $\aleph$-fazo deyiladi ($\aleph_0$-fazo) deyiladi.

Agar kompakt X fazo D^m kantor kubning uzluksiz aksi bo‘lsa, X fazo diadik kompakt fazo deyiladi, bu yerda $m \geq \aleph_0$.

Dissertatsiyaning birinchi bobi ikkinchi paragrafida kategoriya, Shepin ma’nosidagi normal funktor hamda $\exp$ funktorlar ta’riflari keltirilgan.

Bizga $\xi = \{\theta, \mathrm{M}\}$ va $\xi' = \{\theta', \mathrm{M}'\}$ kategoriyalar berilgan bo‘lsin. Ob’ektni ob’ektga, morfizmni morfizmga o‘tkazuvchi va quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $F : \xi \to \xi'$ akslantirish kovariant funktor deyiladi, agar

1) ξ kategoriyadan olingan har qanday $f : X \to Y$ morfizm uchun $F(f)$ morfizm $F(X)$ dan $F(Y)$ ga harakatlansa;

2) har qanday $X \in \theta$ ob’ekt uchun $F(\mathrm{id}_X) = \mathrm{id}_{F(X)}$ tenglik o‘rinli bo‘lsa;

3) $f \circ g$ kompozitsiya aniqlangan har qanday f va g morfizmlar uchun $F(f \circ g) = F(f) \circ F(g)$ tenglik o‘rinli bo‘lsa.

Aytaylik $F : Comp \to Comp$ – ixtiyoriy kovariant funktor bo‘lsin.

Har qanday $S = \{X_\alpha, \pi_\alpha^\beta, A\}$ teskari spektr uchun ushbu $F(S) = \{F(X_\alpha), F(\pi_\alpha^\beta), A\}$ teskari spektr aniqlangan bo‘lib,

$F(\pi_\alpha): F(\lim S) \to F(X_\alpha)$ akslantirishlar limiti $\pi: F(\lim S) \to \lim F(S)$ gomeomorfizm bo‘lsa, u holda F kovariant funktor uzluksiz deyiladi.

Har qanday X cheksiz kompakt uchun $w(F(X)) = w(X)$ tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda F funktor salmoqni saqlovchi funktor deyiladi.

Har qanday X kompaktni Y kompaktga o‘tkazuvchi i joylashtirish uchun $F(i): F(X) \to F(Y)$ akslantirish ham joylashtirish bo‘lsa, u holda F funktor monomorf deyiladi. F funktorning monomorf ekanligi $A \subset X$ qism fazo uchun uchun $F(A)$ fazoni $F(X)$ ning qism fazosi sifatida qarash imkonini beradi.

Ustiga akslantirishlarni saqlovchi funktor epimorf funktor deb ataladi.

Har qanday $\{B_\alpha : \alpha \in A\}$ kompakt fazoning yopiq to‘plamalar oilasi uchun

$$F\left(\bigcap_{\alpha \in A} B_\alpha\right) = \bigcap_{\alpha \in A} F(B_\alpha)$$

shartni qanoatlantiruvchi F funktor kesishmani saqlovchi funktor deb ataladi.

Uzluksiz, salmoqni, kesishmani hamda proobrazlarni saqlovchi, monomorf, epimorf, bo‘sh to‘plamni bo‘sh to‘plamga, bir nuqtali to‘plamni bir nuqtali to‘plamga o‘tkazuvchi $F: Comp \to Comp$ funktor normal funktor deb ataladi.

Normallikning proobrazlarni saqlashdan boshqa barcha shartlarini qanoatlantiruvchi funktor kuchsiz normal funktor deyiladi.

Aytaylik, X – topologik T_1-fazo bo‘lsin. Bu fazoning barcha bo‘sh bo‘lmagan yopiq qism to‘plamlaridan iborat oila $\exp X$ orqali belgilanadi. Quyidagi ko‘rinishdagi barcha to‘plamlar oilasi $\exp X$ to‘plamda topologiya bazasini tashkil etadi:

$$O\langle U_1, U_2, ..., U_n\rangle = \left\{F : F \in \exp X,\ F \subset \bigcup_{i=1}^{n} U_i,\ F \cap U_i \neq \varnothing,\ i = 1, 2, ..., n\right\},$$

bu yerda $U_1, U_2, ..., U_n$ lar – X fazoning ochiq to‘plamlari. Bu aniqlangan topologiya Vietoris topologiyasi deb ataladi, $\exp X$ to‘plam esa Vietoris topologiyasi bilan birgalikda X fazoning eksponensial fazosi yoki giperfazosi deb nomlanadi. Giperfazo $\exp X$ ning quyidagi qism to‘plamalarini qaraymiz:

$$\exp_n X = \{F \in \exp X : |F| \leq n\},$$

$$\exp_\omega X = \bigcup \{\exp_n X : n \in N\},$$

$$\exp_c X = \{F \in \exp X : F - kompakt\}.$$

Ixtiyoriy X topologik T_1-fazo uchun quyidagi munosabat o‘rinli $\exp_n X \subset \exp_\omega X \subset \exp_c X \subset \exp X$.

Tasdiq 1.2.3. Bizga X topologik T_1-fazo berilgan bo‘lsin. Har qanday $(x_1, x_2, ..., x_n) \in X^n$ nuqtani $\{x_1, x_2, ..., x_n\} \in \exp_n X$ nuqtaga o‘tkazuvchi uzluksiz syurektiv akslantirishni quyidagicha olamiz, bu yerda:

$$\pi_{n,X} = \pi_n : X^n \to \exp_n X .$$

Teorema 1.2.1. Bizga X cheksiz T_1-fazo va X fazodagi ixtiyoriy $U_1, U_2, ..., U_n$ bo‘sh bo‘lmagan ochiq to‘plamlar berilgan bo‘lsin. U holda quyidagi tenglik o‘rinli bo‘ladi:

$$\left[O\langle U_1, U_2, \ldots, U_n\rangle\right] = O\langle [U_1], [U_2], \ldots, [U_n]\rangle .$$

P.S.Aleksandrovning “Bir strelkasi” ta’rifini keltiraylik. Sonlar o‘qida $[0,1)$ yarim intervalni qaraymiz. $[0,1)$ yarim intervalni quyidagi topologiyasi bilan tanishamiz: $[\alpha, \beta)$, $0 \le \alpha < 1$, $0 < \beta \le 1$, ko‘rinishda aniqlangan barcha yarim intervallar ta’rif bo‘yicha bu topologiyaning bazasini aniqlaydi. Hosil qilingan topologik fazoni X^* bilan belgilaymiz.

P.S.Aleksandrovning “Qo‘sh strelkasi” ta’rifini keltiraylik. $X = [0,1)$, $X' = (0,1]$ quyidagi yarim intervallarni qaraymiz. Bu yarim intervallarning barcha nuqtalar to‘plamini X^{**} bilan belgilaymiz. X^{**} da topologiyani quyidagicha aniqlaymiz. $U_1 = [\alpha, \beta) \cup (\alpha', \beta')$, $U_2 = (\alpha, \beta) \cup (\alpha', \beta']$ ko‘rinishdagi barcha to‘plamlar topologiyani bazasini hosil qiladi, bu yerda $[\alpha, \beta)$ – X dagi yarim interval, (α', β') – (α, β) intervalni X' dagi proektsiyasi; $(\alpha', \beta']$ – X' dagi yarim interval, (α, β) esa (α', β') intervalni X dagi proektsiyasi.

Shuningdek, **uchinchi paragrafda** tekis o‘lchovli fazolarning salmog‘i, tekis o‘lchovli parakompaktligi va tekis o‘lchovli R-parakompaktligi keltirilgan.

Ta’rif 1.3.1. Bizga bo‘sh bo‘lmagan X to‘plam berilgan bo‘lsin. Agar X to‘plamdagi qoplamalardan iborat $\mathcal{U}$ oila quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:

(P1) Agar $\alpha \in \mathcal{U}$ va α qoplama X to‘plamdagi β qoplamaga ichki chizilgan bo‘lsa, u holda $\beta \in \mathcal{U}$ bo’ladi;

(P2) Ixtiyoriy $\alpha_1 \in \mathcal{U}$, $\alpha_2 \in \mathcal{U}$ lar uchun shunday $\alpha \in \mathcal{U}$ qoplama mavjud bo‘lib, α qoplama α_1 ga va α_2 ga ichki chizilgan bo‘lsin;

(P3) Ixtiyoriy $\alpha \in \mathcal{U}$ qoplama uchun shunday $\beta \in \mathcal{U}$ qoplama mavjud bo‘lib, β qoplama α ga kuchli yulduzli ichki chizilgan bo’lsin;

(P4) Ixtiyoriy turli $x, y \in X$ nuqtalar juftligi uchun shunday $\alpha \in \mathcal{U}$ qoplama topilib, x va y .nuqtalar bir vaqtning o‘zida α qomlamani biror elementiga tegishli bo‘lmaydi.

U holda $\mathcal{U}$ oila X to‘plamda tekis o‘lchovlilik deyiladi.

(P1)-(P3) shartlarni qanoatlantiradigan X to‘plamdan tashkil topgan $\mathcal{U}$ oilaga psevdotekis o‘lchovlilik, $(X, \mathcal{U})$ juftlikka esa psevdotekis o‘lchovli fazo deyiladi.

(P1)-(P4) shartlarni qanoatlantiradigan X to‘plamdan tashkil topgan $\mathcal{U}$ oilaga tekis o‘lchovlilik, $(X, \mathcal{U})$ juftlikka esa tekis o‘lchovli fazo deyiladi.

Agar ixtiyoriy $\alpha \in \mathcal{U}$ qoplama uchun $\beta \in \mathcal{B}$ qoplama mavjud bo‘lib, β qoplama α qoplamaga ichki chizilsa, u holda $\mathcal{B} \subset \mathcal{U}$ oila $\mathcal{U}$ tekis o‘lchovlilikning bazasi deyiladi. Ravshanki tekis o‘lchovlilik ko‘p bazaga ega. Eng kichik kardinal songa $\mathscr{U}$ tekis o‘lchovlilikning salmog‘i deyiladi va $w(\mathscr{U})$ ko‘rinishda belgilanadi.

Tasdiq 1.3.1. X to‘plamning qoplamalar oilasi $\mathscr{B}$ oilasi X to‘plamdagi tekis o’lchovlilik $\mathscr{U}$ da baza tashkil qiladi faqat va faqat shu holdaki, agar $\mathscr{B}$ oila quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:

(B1) Ixtiyoriy $\beta_1, \beta_2 \in \mathscr{B}$ qoplamalar juftligi uchun shunday $\beta \in \mathscr{B}$ qoplama topilib, β_1 va β_2 qoplamalar β qoplamaga ichki chizilsa,

(B2) Ixtiyoriy $\beta \in \mathscr{B}$ qoplama uchun shunday $\gamma \in \mathscr{B}$ qoplama topilib, γ qoplma β qoplamaga kuchli yulduzli ichki chizilsa,

(B3) Ixtiyoriy $x \in X$ nuqta uchun $\cap\{\beta(x) : \beta \in \mathscr{B}\} = \{x\}$ tenglik o‘rinli bo‘lsa.

Tasdiq 1.3.2. X fazodagi ixtiyoriy $\mathscr{U}$ tekis o‘lchovlilk uchun $\tau_{\mathscr{U}} = \{O \subset X :$ ixtiyoriy $x \in O$ element uchun shunday $\alpha \in \mathscr{U}$ qoplama topilib, $\alpha(x) \subset O\}$ oila X fazoda topologiya bo’ladi va $(X, \tau_{\mathscr{U}})$ topologik fazo T_1-fazo bo’ladi.

$\tau_{\mathscr{U}}$ topologiya $\mathscr{U}$ tekis o‘lchovlilikka qurilgan yoki indutsirlangan topologiya bo‘ladi.

Aytaylik, $(X, \mathscr{U})$ tekis o‘lchovli fazo va $\exp X$ to‘plam $(X, \tau_{\mathscr{U}})$ fazodagi barcha bo‘sh bo‘lmagan yopiq qism to‘plamlar bo‘lsin. Ixtiyoriy $\alpha \in \mathscr{U}$ qoplama uchun $P(\alpha) = \{\langle\alpha'\rangle : \alpha' \subseteq \alpha\}$ ni mos qo‘yamiz, bu yerda $\langle\alpha'\rangle = \{F \in \exp X : F \subseteq \cup\alpha'\}$ va $F \cap A \neq \varnothing$ har qanday $A \in \alpha'$ uchun.

Tasdiq 1.3.3. Agar $\mathscr{B}$ oila $(X, \mathscr{U})$ tekis o‘lchovli fazodagi baza bo‘lsa, u holda $P(\mathscr{B}) = \{P(\alpha) : \alpha \in \mathscr{B}\}$ oila $\exp X$ fazodagi $\exp\mathscr{U}$ tekis o‘lchovlilik uchun baza tashkil qiladi.

Izoh 1.3.1. Bizga $\exp_c X$ – $(X, \mathscr{U})$ tekis o‘lchovli fazodagi barcha bo‘sh bo‘lmagan kompakt qism to‘plamlar berilgan bo‘lsin. Ixtiyoriy $\alpha \in \mathscr{U}$ qoplama uchun $K(\alpha) = \{\langle\alpha'\rangle : \alpha' \subseteq \alpha \text{ и } \alpha' - chekli\}$ ni mos qo‘yamiz. Shunga e’tibor beramizki $K(\alpha)$ – $\exp_c X$ to‘plamda qoplama bo’ladi.

$(X, \mathscr{U})$ fazodagi ixtiyoriy γ additiv ochiq qoplama uchun shunday ketma-ketlik $\{\alpha_n\} \subset \mathscr{U}$ topilib

($\mathscr{U}P$) Ixtiyoriy $x \in X$ nuqta uchun shunday $n \in N$ son va $\Gamma \in \gamma$ element topilib, $\alpha_n(x) \subset \Gamma$ o‘rinli bo‘ladi

sharti bajarilsa, u holda $(X, \mathscr{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli parakompakt fazo deyiladi.

Agar $(X, \mathscr{U})$ fazoning ixtiyoriy qoplamasiga lokal chekli ochiq qoplamani ichki chizish mumkin bo‘lsa $(X, \mathscr{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli $R-$ parakompakt fazo deyiladi.

Ta’rif 1.3.2. Agar ixtiyoriy $\alpha \in \mathscr{U}$ qoplama uchun shunday natural n soni topolib har qanday $x, y \in X$ juftlik uchun $\{A_1, A_2, ..., A_k\} \subset \alpha$ zanjirlangan sistemada

$k \le n$ uchun $x \in A_1,\ y \in A_k$ bo‘lsa $(X,\mathscr{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli zanjirlangan deyiladi.

Ta’rif 1.3.3. Agar $(X,\mathscr{U})$ tekis o‘lchovli fazoda har qanday uzluksiz haqiqiy funksiya chegaralangan bo‘lsa $(X,\mathscr{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli psevdokompakt deyiladi.

Agar $\mathscr{U}$ tekis o‘lchovlilikdagi $\mathscr{B}$ baza P xossani qanoatlantiruvchi qoplamalardan iborat bo‘lsa $(X,\mathscr{U})$ tekis o‘lchovli fazo P – oldkompakt deyiladi.

Dissertatsiyaning **“Giperfazoning topologik va kardinal xossalari”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobi uchta paragrafdan tashkil topgan. Dissertatsiyaning bu bobida kuchsiz normal funktorlarining kardinal va topologik xossalari tadqiq qilingan, kompakt fazo va uning kuchsiz normal funktori nasliy oldshanin sonini, nasliy kalibrini, nasliy oldkalibrini, nasliy kuchsiz zichligini, nasliy Lindelyof sonini va ekstentini saqlashi o‘rganilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida kovariant funktorlar fazolarining kardinal xossalari tadqiq qilingan.

Dissertatsiya ishidagi giperfazolarga oid natijalar quyidagilarda o‘z aksini topgan.

Teorema 2.1.1. $F : Comp \to Comp$ kuchsiz normal funktor va X kompakt fazo mavjud bo‘lsa, u holda quyidagi tengsizlik o‘rinli:

$$\varphi\big(F(X)\big) \neq \varphi(X),$$

bu yerda $\varphi = \{hk, hpk, hpsh, hwd, hl, he\}$.

Misol 2.1.1. Yevklid fazosi R^n da har qanday kompakt diadik kompakt bo‘ladi.

Misol 2.1.2. P.S.Aleksandrovning “Qo‘sh strelkasi” kompakt to‘plam bo‘ladi, lekin diadik kompakt bo‘lmaydi (agar kompakt X fazo diadik kompakt bo‘lsa, u holda $w(X) = \chi(X)$ tenglik o‘rinli), chunki bu fazo sanoqlilikni birinchi aksiomasini qanoatlantiradi, lekin sanoqli bazaga ega emas.

Teorema 2.1.2. Har qanday X diadik kompakt fazo va har qanday $F : Comp \to Comp$ kuchsiz normal funktor uchun quyidagi tenglik o‘rinli:

$$\varphi\big(F(X)\big) = \varphi(X),$$

bu yerda $\varphi = \{\chi, \psi, t, hd, h\pi w, hsh, hc, s\}$.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida giperfazoning final kompakt, sekvensial kompakt, psevdokompakt, ekstremal bog‘lamsiz xossalari tadqiq etilgan.

Misol 2.2.1. P.S.Aleksandrovning “Bir strelkasi” va yevklid fazosi R^n final kompakt fazo bo‘ladi lekin kompakt fazo bo‘lmaydi.

Teorema 2.2.1. X topologik T_1-fazo final kompakt bo‘lishi uchun $\exp_c X$ fazoning final kompakt bo‘lishi zarur va yetarli.

Teorema 2.2.1 dan quyidagi natija kelib chiqadi.

Natija 2.2.1. X topologik T_1-fazo final kompakt bo‘lishi uchun $\exp_n X$ fazoning final kompakt bo‘lishi zarur va yetarli.

Ravshanki, har qanday ekstremal bog‘lamsiz xausdorf fazosi nasliy bog’lamsiz bo’ladi.

Misollar 2.2.2. 1) 2.2.1 misoldagi P.S.Aleksandrovning “Bir strelkasi” ekstremal bog’lamsiz va bog‘lamsiz fazo bo‘ladi.

2) Barcha ratsional sonlar fazosi ekstremal bog‘lamsiz fazo bo’lmaydi lekin bog’lamsiz fazo bo‘ladi.

3) X ixtiyoriy cheksiz to‘plamni va $\tau = \{U : X \setminus U - chekli\ to'plam\} \cup \{\varnothing\}$ oilani qaraylik. τ oila X fazoda topologiyani tashkil qiladi. Bu topologiya X fazo bilan birgalikda Zariskiy fazosi deyiladi. Zariskiy fazosi ekstremal bog‘lamsiz va bog’lamli fazo bo‘ladi.

Teorema 2.2.5. X topologik T_1-fazo ekstremal bog‘lamsiz bo‘ladi faqat va faqat shu holdaki, $\exp X$ fazo ekstremal bog‘lamsiz bo‘lsa.

Teorema 2.2.6. Lokal kompakt X fazo parakompakt bo‘ladi faqat va faqat shu holdaki, $\exp_c X$ fazo parakompakt bo‘lsa.

Natija 2.2.2. Lokal kompakt X fazo parakompakt bo‘ladi faqat va faqat shu holdaki, $\exp_n X$ fazo parakompakt bo‘lsa.

Izoh 2.2.1. Teorema 2.2.6 dagi lokal kompaktlik sharti muximdir.

Misol 2.2.4. Bizga X^* P.S.Aleksandrovning bir strelkasi berilgan bo‘lsin. X^* fazo parakompakt fazo bo‘ladi. Har qanday parakompakt xausdorf fazosi normal fazo bo‘ladi. Demak X^* normal fazo, lekin $X^* \times X^*$ ko‘paytma normal emas. Bundan kelib chiqadiki $X^* \times X^*$ parakompakt bo‘lmaydi, demak $\exp_2 X^*$ ham parakompakt bo‘lmaydi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida topologik fazolarga $\exp_n$ funktor ta’sir qilganda σ-fazolar, parakompakt Σ-fazolar, stratifik fazolar, $\aleph$-fazolar, $\aleph_0$-fazolar va yarimstratifik fazolar sinfini saqlashi o‘rganilgan.

Bu paragrafda isbotlangan faktlardan quyidagi asosiy natija kelib chiqadi.

Teorema 2.3.1. X topologik T_1-fazo va $\exp_n X$ fazo berilgan bo‘lsin.

(1) X fazoning stratifik fazo bo‘lishi uchun $\exp_n X$ fazoning stratifik fazo bo‘lishi zarur va yetarli.

(2) X fazoning σ-fazo bo‘lishi uchun $\exp_n X$ fazoning σ-fazo bo‘lishi zarur va yetarli.

(3) X fazoning parakompakt $\sum$-fazo bo‘lishi uchun $\exp_n X$ fazoning parakompakt $\sum$-fazo bo‘lishi zarur va yetarli.

Teorema 2.3.2. X topologik T_2-fazo va $\exp_n X$ fazo berilgan bo‘lsin.

1) X fazoning $\aleph$-fazo bo‘lishi uchun $\exp_n X$ fazoning $\aleph$-fazo bo‘lishi zarur va yetarli.

2) X fazoning $\aleph_0$-fazo bo‘lishi uchun $\exp_n X$ fazoning $\aleph_0$-fazo bo‘lishi zarur va yetarli.

3) X fazoning parakompakt $\aleph$-fazo bo‘lishi uchun $\exp_n X$ fazoning parakompakt $\aleph$-fazo bo‘lishi zarur va yetarli.

Teorema 2.3.3. X fazoning yarimstratifik fazo bo‘lishi uchun $\exp_n X$ fazoning yarimstratifik fazo bo‘lishi zarur va yetarli.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tekis o‘lchovli fazo va giperfazo”** deb nomlanib ikkita paragrafni o‘z ichiga oladi, tekis o‘lchovli fazo va uning giperfazosining tekis o‘lchovli xossalari tadqiq qilingan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ giperfazo oldkompaktlikni, tekis o‘lchovli lokal kompaktlikni, tekis o‘lchovli bog‘lamlilikni, tekis o‘lchovli parakompaktlikni va tekis o‘lchovli R-parakompaktlikni saqlashi o‘rganilgan.

Teorema 3.1.1. Berilgan $(X, \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo oldkompakt bo‘lishi uchun $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazoning oldkompakt bo‘lishi zarur va yetarli.

Teorema 3.1.2. $(X, \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis lokal kompakt bo‘lsin. U holda $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis lokal kompakt bo‘ladi.

Teorema 3.1.3. Berilgan $(X, \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo va $\alpha \in \mathcal{U}$ uchun quyidagi shartlar teng kuchlidir:

(1) Ixtiyoriy $x, y \in X$ nuqtalar uchun shunday $\{A_1, A_2, ..., A_k\} \subset \alpha$ chekli zanjirlangan ketma-ketlik mavjud bo‘lib, $x \in A_1$, $y \in A_k$ ifoda o‘rinli.

(2) Ixtiyoriy $F_1, F_k \in \exp_c X$ to‘plamlar uchun shunday $\{\langle \alpha_1^{'} \rangle, \langle \alpha_2^{'} \rangle, ..., \langle \alpha_k^{'} \rangle\} \subset P(\alpha)$ chekli zanjirlangan sistema mavjud bo‘lib, $F_1 \in \langle \alpha_1^{'} \rangle$ $F_k \in \langle \alpha_k^{'} \rangle$ ifoda o‘rinli.

Natija 3.1.1. $(X, \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli bog‘lamli bo‘lishi uchun $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli bog‘lamli bo‘lishi zarur va yetarli.

Teorema 3.1.4. $(X, \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli parakompakt bo‘lishi uchun $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli parakompakt bo‘lishi zarur va yetarli.

Izoh 3.1.1. Aytaylik X^* – P.S.Aleksandrovning bir strelkasi berilgan bo‘lsin, u holda X^* metrikalashgan fazo bo‘lmaydi. Ravshanki, $\exp_n X^*$ fazo Vietoris topolgiyasi bilan parakompakt fazo bo‘lmaydi. Ammo X^* da $\mathcal{U}$ tekis o‘lchovlilikni kiritish mumkinki, $(\exp X^*, \exp \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli parakompakt fazo bo‘ladi.

Teorema 3.1.5. $(X, \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli R-parakompakt bo‘lishi uchun $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli R-parakompakt bo‘lishi zarur va yetarli.

Uchinchi bob ikkinchi paragrafida $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ giperfazo tekis o‘lchovli zanjirlanganlikni, tekis o‘lchovli psevdokompaktlikni va tekis o‘lchovli P-oldkompaktlikni saqlashi o‘rganilgan.

Quyidagi keltirilgan teorema E.Maykl teoremasini analogi.

Teorema 3.2.1. Agar $(X,\mathcal{U})$ tekis fazo va $\alpha \in \mathcal{U}$ qoplama $(X,\mathcal{U})$ fazodagi qoplama bo‘lsa, u holda quyidagi tenglik o‘rinli:

$$[\langle \alpha' \rangle] = \langle [\alpha'] \rangle,$$

bu yerda $\langle \alpha' \rangle \in P(\alpha)$ va $P(\alpha) \in \exp_c \mathcal{U}$.

Teorema 3.2.2. $(X,\mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli zanjirlangan bo‘lishi uchun $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli zanjirlangan bo‘lishi zarur va yetarli.

Teorema 3.2.3. $(X,\mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli psevdokompakt bo‘lishi uchun $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli psevdokompakt bo‘lishi zarur va yetarli.

Teorema 3.2.4. $(X,\mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli P-oldkompakt bo‘lishi uchun $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo tekis o‘lchovli P-oldkompakt bo‘lishi zarur va yetarli,

bu yerda P-tekis o‘lchovli fazoning tekis o‘lchovli nuqtali chekli xossali qoplamasi.

XULOSA

Ushbu dissertatsiya chekli darajali kovariant funktorlarning kardinal va topologik xossalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Dissertatsiyada asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

- kuchsiz normal funktor kompakt fazolarni nasliy oldshanin sonini, nasliy kalibrini, nasliy oldkalibrini, nasliy kuchsiz zichligini, nasliy Lindelyof sonini va nasliy ekstentini saqlamasligi isbotlangan;

- diadik kompakt fazo va kuchsiz normal funktor uchun xarakter, psevdoxarakter, tesnota, nasliy Suslin soni, nasliy zichlig, nasliy π-salmog‘, nasliy Shanin soni va spred teng ekanligi isbotlangan;

- $\exp_c$ funktor final kompaktlikni saqlashi, $\exp_n$ funktor sekvensial kompaktlikni va psevdokompaktlikni saqlashi hamda $\exp$ funktor kuchli nolo‘lchovlilikni va ekstremal bog‘lamsizlikni saqlashi isbotlangan;

- $\exp_n$ funktor stratifiklik va yarim-stratifiklikni saqlashi, σ-fazoni σ-fazoga, parakompakt $\sum$-fazoni parakompakt $\sum$-fazoga, $\aleph$-fazoni $\aleph$-fazoga va $\aleph_0$-fazoni $\aleph_0$-fazoga o‘tkazishi isbotlangan;

- $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli giperfazo oldkompaktlikni, tekis lokal kompaktlikni, tekis bog‘lamlilikni, tekis R-parakompaktlikni, tekis zanjirlanganlikni va tekis P-oldkompaktlikni saqlashi ko‘rsatilgan hamda $(\exp_c X, \exp_c \mathcal{U})$ tekis o‘lchovli fazo uchun $[\langle \alpha' \rangle] = \langle [\alpha'] \rangle$ tenglik o‘rinli bo‘lishi isbotlangan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

САФАРОВА ДИЛНОРА ТЕШАБОЕВНА

КАРДИНАЛЬНЫЕ И ТОПОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА КОВАРИАНТНЫХ ФУНКТОРОВ КОНЕЧНОЙ СТЕПЕНИ

01.01.04 – Геометрия и топология

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2018.4.PhD/FM291.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана им. Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http://ik-fizmat.nuu.uz/) и на Информационнообразовательном портале «Ziyonet» (http://www.ziyonet.uz/).

Научный руководитель: **Бешимов Рузиназар Бебутович**
доктор физико-матемтических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Заитов Адилбек Атаханович**
доктор физико-математических наук, профессор

Рахимов Абдугафур Абдумаджидович
доктор физико-математических наук, профессор

Ведущая организация: **Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами**

Защита диссертации состоится «04» 01 2024 года в 14^00 на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4 Тел.: (+998 71) 227 12 24, факс: (+998 71) 246 53 21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за № 191) (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4.Тел.: (+998 71) 246 02 24).

Автореферат диссертации разослан «21» 12 2023 года.
(протокол рассылки № 1 от «21» 12 2023 года).

А.Садуллаев
Председатель научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., академик

Р.М.Жураев
Ученый секретарь научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.ф.ф.-м.н. (PhD)

А.Я.Нарманов
Председатель научного семинара
при Научном совете
по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Множество научных и практических исследований на мировом уровне, в большинстве случаев, сводится к исследованию задач теории ковариантных функторов конечной степени. Оценка кардинальных инвариантов слабо нормальных функторов является объектом исследований в таких областях, как функциональный анализ, геометрия и топология. Сравнение кардинальных чисел ковариантных функторов конечной степени с кардинальными инвариантами при определении условий равенства кардинальных чисел топологических пространств, служит основой для вычисления кардинальных чисел заданного пространства. В связи с этим сравнение и изучение кардинальных и топологических свойств гиперпространства конечной степени является одной из важнейших задач исследований гиперпространств, алгебраической топологии, теории кардинальных инвариантов. Кроме того, поскольку теория вероятностей и математическая статистика имеют собственную интерпретацию при созданиии различных моделей, полученные в этом направлении результаты имеют как теоретическую, так и практическую значимость, и считаются актуальными решениями задач в одной из важнейших областей современной математики.

На сегодняшний день, в мире, одной из актуальных проблем современной топологии является исследование проблем общей топологии, теории слабо нормальных функторов, сравнение кардинальных инвариантов гиперпространств. Основные представляет исследование кардиналов, плотность, вес, характер, слабая плотность, число Шанина, число предшанина, число линделефа, экстент гиперпространства. С этим сравнение кардиналов данного пространства и его гиперпространства, нахождение условий равенства кардинальных инвариантов и, более того, вопрос о «равномерной» структуре гиперпространств являются целевыми научными исследованиями.

В нашей стране было уделено особое внимание актуальным аспектам геометрии и топологии, которые имеют научные и практические применения в фундаментальных науках. Особие внимание уделяется изучению теории кардинальных инвариантов и теории функторов в топологических пространствах. Значительные результаты были получены в задачах соранения топологических, геометрических и кардинальных свойств ковариантных функторов конечной степени. Проведение научных исследований на международном уровне по важным направлениям специальности «Функциональный анализ, геометрия и топология» рассматривается как основная задача фундаментальных исследований[1]. В связи с этим, сравнение кардиналов гиперпространств и нахождение условий

[1] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 мая 2017 года №292 «О мерах по организации деятельности вновь созданных научно-исследовательских учреждений Академии наук Республики Узбекистан»

для равенства кардинальных инвариантов являются целевыми научными исследованиями.

Тема и объекты исследования настоящей диссертации и изученные проблемы по теме служат реализацию задач, отмеченных в Указах Президента Республики Узбекистана № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии действия по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-2789 от 17 февраля 2017 года «О дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно исследовательской деятельности» и ПП-4387 от 9 июля 2019 года «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а также коренного совершенствования деятельности Института Математики имени В.И.Романовского Академии наук Республики Узбекистан», а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной области деятельности.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан IV «Математика, механика и информатика».

Степень изученности проблемы. Исследование ковариантных функторов конечной степени в категории топологических пространств с непрерывными отображениями в качестве морфизмов началось с момента возникновения топологии как отдельной области математики. Если рассмотреть функторы в категории компактных пространств и их непрерывных отображений, то классическим примером является функтор взятия экспоненты, появление которого связано с именами Ф.Хаусдорфа и Л.Вьеториса. В работах Е.В.Щепина построена далеко продвинутая очень содержательная общая теории ковариантных функторов. Он выделил ряд естественных и широких свойств функтора, а также дал определение нормального функтора.

